

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



УО'К: (09)657.01(~)

**ZAMONAVIY JAMIyatDA KONFUTSIYCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI  
YO'NALISHLARI**

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОНФУЦИАНСТВА В  
СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ**

**PROMISING DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CONFUCIANISM IN MODERN  
SOCIETY**

Xoldarov Saidbek Raxmadjon o'g'li 

Andijon davlat universiteti, Falsafa kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Mazkur tadqiqot zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikning o'rni va ahamiyatini, uning rivojlanish istiqbollarini o'rganishga qaratilgan. Konfutsiychilik nafaqat qadimiy Sharq falsafasi, balki uzoq tarix davomida Sharq jamiyatlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatib kelgan o'ziga xos dunyoqarashdir. Shuningdek, zamonaviy globallashuv davrida konfutsiychilikning dolzarbligi, uning ijobji va salbiy jihatlari ko'rib chiqiladi.*

**Аннотация**

Данное исследование направлено на изучение роли и значения конфуцианства в современном обществе, перспектив его развития. Конфуцианство – это не только древняя восточная философия, но и уникальное мировоззрение, долгое время влиявшее на социальную и духовную жизнь восточных обществ. Также рассматривается актуальность конфуцианства в эпоху современной глобализации, его положительные и отрицательные стороны.

**Abstract**

*This study aims to study the role and significance of Confucianism in modern society, as well as its development prospects. Confucianism is not only an ancient Eastern philosophy, but also a unique worldview that has influenced the socio-spiritual life of Eastern societies throughout history. It also examines the relevance of Confucianism in the era of modern globalization, its positive and negative aspects.*

**Kalit so'zlar:** globallashuv, insonrarvarlik, jamiyat, qadriya, axloqiylik, tanazzul.

**Ключевые слова:** глобализация, гуманизм, общество, ценности, мораль, упадок.

**Key words:** globalization, humanism, society, values, morality, decline.

**KIRISH**

Konfutsiychilik – eng qadimiy xitoy falsafasi, balki uzoq tarix davomida Sharq jamiyatining ma'naviy-axloqiy, siyosiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatib kelgan, o'ziga xos dunyoqarash hisoblanadi. Ushbu ta'limot, asosan, insonrarvarlik, jamiyatga xizmat qilish, axloqiylik, oilaviy qadriyatlar va an'analarni hurmat qilish kabi prinsirlarga asoslanadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida, konfutsiychilikning ushbu qadriyatlari, xususan, jamiyatni ma'naviy tanazzuldan himoya qilish, yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatda ahillikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari, adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi asosida o'rganiladi.

**ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA.**

Konfutsiyshilikning boshqa falsafiy va diniy ta'lomitlar bilan solishtirma tahlili, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi, uning haqida yozilgan manbalardan bilib olishimiz mumkun.[3]. Ushbu adabiyotlar orqali konfutsiychilikning boshqa dunyoqarashlarga nisbatan o'rnini belgilash mumkin.

Falsafa, sotsiologiya, psixologiya va siyosatshunoslikka oid adabiyotlar, konfutsiychilikning jamiyat, inson va siyosatga bo'lgan ta'sirini o'rganishda qo'l keladi.[9]. Bu adabiyotlar orqali konfutsiychilikning zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi rolini baholash mumkin.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Konfutsiychilik – qadimiy Xitoy falsafasi hamda Sharq sivilizatsiyasi tarixida muhim ahamiyatga ega, ko'p asrlar davomida mintaqaga xalqlari ma'naviyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-axloqiy

## FALSAFA

ta'lomitdir. Bu ta'lomit insonparvarlik, vatanparvarlik odob-axloq, o'zaro hurmat va oilaviy qadriyatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy globallashuv va tezkor o'zgarishlar davrida, insoniyat ma'naviyatini mustahkamlash, axloqiy muammolarni hal etish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu borada konfutsiychilikning o'ziga xos yondashuvlari va tajribasi, zamonaviy jamiyat uchun qimmatli me'ros sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Qadimgi Xitoy adabiyoti, san'ati, arxitekturasi Hindiston adabiyoti, san'ati va arxitekturasidan aslo qolishmasligini aytishimiz mumkin. Lekin Sharqda yetishib chiqqan faylasuflarni shaxslarning hayoti va ijodi yetarli o'rganilmaganini, bu borada psixologik tadqiqotlar umuman yo'qligini, chop etilgan asarlardan bilishimiz mumkun.“Konfutsiy o'zidan oldin paydo bo'lgan bilimlarni umumlashtirib, yanada rivojlantirib, davlat haqidagi o'z qarashlarini bayon etadi. Davlat go'yo katta bir oila, oila boshlig'i imperator bosh hukmron, qolganlar unga bo'yusunishi kerak. Konfutsiy mavjud tartiblarni keskin tanqid qilish yo'lidan bormaydi. U kelishuvchilik,murosa yo'lini tanlaydi. Mavjud ijtimoiy tuzim va tartibotlarni tan olgan holda, ularni yanada takomillashtirish haqida fikr yuritadi. Davlatni boshqarishdaadolat tamoyillariga amal qilish kerakligini uqtirar ekan uning ta'lomi progressiv yo'naliш kasb etadi. Bu g'oya shu paytgacha hukmron bo'lgan davlat boshqarishdagi zo'rlik g'oyalariga zid edi”. [1.27-b.]“Konfutsiy Davlatni katta oilaga qiyoslar ekan hokimiyatga qarshi qaratilgan harakatlarga norozi bo'ladi. Imperator hokimiyatini ( osmon o'g'li) quvvatlaydi. Kichiklar holati kattalardan kelib chiqadi. Shuning uchun jamiyatni ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan tabaqalarga bo'ladi. «Kichiklar», «qora odamlar», «oddiy odamlar».«Yaxshilar», «yuqorilar», «kattalarga» buysunadi. Konfutsiy hokimiyatga qarshi kurashlar, kuzgolonlarni qoralaydi. Fuqarolar tinchligi uchun harakatni qadrlaydi. Konfutsiy harbiy yurishlarga xayrihox bo'ladi”.[2.27-b.]

Umuman olganda, Sharq faylasuflari demokratiya tamoyillarining uch ko'rinishi haqida fikr yuritgan. Ular:

1. Hukmdorga sadoqat.
2. Jamoaviylik.
3. Hamjihatlik.

Jamoaviylik va hamjihatlikning demokratiya tamoyillari bo'lishi tabiiy. Ammo, “hukmdorga sadoqat” demokratiya tamoyili bo'la oladimi? Qizig'i shundaki, Sharq faylasuflari aynan “hukmdorga sadoqat” tushunchasi vositasida demokratik tizim haqida so'zlashadi. Bu tushunchani anglamasdan, jamoaviylik va hamjihatlikning ma'no-mazmunini tushunish qiyin. Shu ma'noda “hukmdorga sadoqat” tushunchasi:

- 1) hukmdorga sadoqatda bo'lish bilan davlat xizmatida fidoyilik ko'rsatish;
  - 2) hukmdorga sadoqatda bo'lish – bu hukmdorning axloqini tuzatish bilan uni raiyatrarvar siyosat yuritishga undash;
  - 3) hukmdorga sadoqatda bo'lish – bu davlatni oqilona kengayib boshqarishni qamrab oladi.
- Zero, Sharq falsafiy fikrlar taraqqiyotida “hukmdorga sadoqatda bo'lish” tushunchasi demokratiyaning quyidagi jihatlarini ifodalaydi:

- A) hukmdorni tarbiyalash;
- B) hukmdorning raiyatrarvar siyosat yuritishiga erishish;
- V) davlat va jamiyatni ongli boshqarishni ta'minlash.

Misollarga murojaat qilaylik: “Allohga, rayg'ambarlarga va o'zlariningizdan bo'lgan hukmdorlarga bo'yusuningiz!”[6.54-oyat]. Bu hukm VII-XIX asrlar davomida Sharq faylasuflari ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlarining negizi bo'lib keldi. Chunki hukmdor ham inson sifatida tarbiyaga muhtoj, agar u munosib tarbiyalanib borsa, raiyatparvar siyosat yuritadi.

Raiyatparvarlik (hozirgi tilda “xalqparvarlik”) bu – demokratiyaning asosidir. Savol tug'iladi: raiyatrarvar siyosatning mezoni nima? Sharq faylasuflari bu savolga bir ovozdanadolat deb javob beradi. “Alloh, - deydi Abu Homid G'azzoliy (XII asr),-qiyomatda hukmdorlardan amal qilganadolati haqida so'raydi”.[7.19-b.].Unga ko'ra, oddiy odamlardan gunoh haqida so'ralsa, hukmdorlardan davlat siyosatidaadolat mezoniga qanchalik amal qilganligi so'raladi. Abu Homid G'azzoliyning bu fikrlari shunchaki qog'ozda qolib ketmagan. Sharq hukmdorlari bu kabi qat'iy fikrlarga diqqat bilan qarashgan. Shuningdek, u deydiki, “ulamolar hukmdorniadolatga o'rgatishi kerak”.Demak, hukmdor raiyatparvar siyosat yuritishi uchunadolatmezoni amal qilishi kerak va buning uchun ziylililar mas'ul. Adolatmezoni quyidagi to'rt qoidaga rioya qilish bilan namoyon bo'ladi:

- 1) hiyonatchi kimsalarga mansab bermaslik;

- 2) davlatni aqlli kishilar yordamida boshqarish;
- 3) tajribali kishilar o'gitiga qulq solish;
- 4) fuqarolar fe'l-atvorini nazorat qilib borish.

Ma'lum bo'ladiki, "hukmdorga sadoqatda bo'lish" tushunchasi Sharqona demokratiya tamoyillarining negizini tashkil qiladi. Chunki hukmdorni to'g'ri yo'naltirish bilan davlat va jamiyat boshqaruvida raiyatparvarlik siyosatini yuzaga keltirish mumkin. Bu o'rinda Sharq demokratiyasining tarbiya omiliga asoslanishi namoyon bo'lgan.

Sharq faylasuflarining demokratiya tamoyillariga doir o'ziga xos munosabatlari izsiz yo'qolib ketgan emas. Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) o'z davlatini tuzish, boshqarish va xalq farovonligini ta'minlash hukmdorga sadoqat, jamoaviylik va hamjihatlik qoidalaridan unumli foydalangan. Misol uchun, sohibqiron vakillik demokratiyasining ko'rinishi bo'lgan Qurultoy (Rarlament) institutidan juda muvaffaqiyatli foydalangan. Unga ko'ra, mansabdorlar va ziyorilar belgilangan kunda Oqsaroyda qurultoya yig'ilib, davlat ahamiyatiga oid masalalarni muhokama qilib, kengash o'tkazishgan. Sohibqiron deydi: "Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda oldimizdag'i ishlarning yaxshi-yomon, foyda-yu-ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmaslik haqida so'z ochib, fikr so'rар edim. Ularning so'zlarini eshitgach har tomonlama mushohada qilib, foyda-ziyonlarini ko'nglimdan kechirar edim va xatarli tomonlariga ko'proq e'tibor nazari bilan qarardim; qaysi bir ishda ikki xatar mavjud bo'lsa, undan voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim".[8.25-26 b.]. Mazkur fikrda biz vakillik demokratiyasining tirik namoyon bo'lishini ko'ramiz. "Kengash ahlidan, -deydi Sohibqiron, - kimki kuyinib maslahat bersa, qulq solardim, ayni raytda, kimki oqilona gaplarni mardlarcha keskinlik bilan so'zlasa, uni diqqat bilan tinglardim".[8.25-26 b.]

Zero, Sharq faylasuflari demokratiya tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan o'ziga xos tarzda talqin qilganligiga duch kelamiz. Ta'kidlash lozim, Sharqda demokratiya – bu davlat va jamiyat ishida o'z vazifasini halol va haddi a'losiga yetkazib bajarishdan iborat. Shu sababli mansabdor shaxslar o'z vazifasini Xudo oldida hisob berishdan qo'rqib bajarishgan. Bu tuyg'u natijada qonun-qoidaga qat'iy rioya qilishga olib kelgan. Vakolatga ega shaxslar qonundan yoki odamdan emas, balki Absolyut qudrat egasidan qo'rqishgan. Chunki qonun yoki odamni o'zgartirish mumkin, ammo mutloq qudrat egasining hukmini o'zgartirish mumkin emas. Bu demokratiya sari ilk, lekin muhim qadamdir.

Shunday qilib Sharq falsafiy fikrlar taraqqiyotida demokratiya tamoyillariga o'ziga xos munosabat mavjud. Mazkur masalada ta'kidlanganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

**Birinchidan**, Sharq falsafiy merosida "demokratiya" tushunchasi "al-muluk ad-davla" – qudratli davlat tushunchasi vositasida ifodalangan.

**Ikkinchidan**, Sharq falsafiy fikrlarida demokratiyaning asosiy tamoyillari sifatida Hukmdorga sadoqat (davlatga ishonch), Raiyatlarvarlik, Jamoaviylik va Adolat belgilangan, bular demokratiyaning umuminsoniy qadriyatlariga uyg'undir.

**Uchinchidan**, Sharqda demokratiya tamoyillari Amir Temur tomonidan Qurultoy (hozirgi rarlament) instituti vositasida vakillik demokratiyasini ko'rinishida amaliyatga tatbiq etilgan.

Konfutsiy hukmdorlarni, mansabdorlarniadolatli bo'lishga chorlaydi. Eng muhimi hukmronningadolatliligi barcha xalqni hayotiga yaxshi yashashiga ta'sir qiladi. Davlatning barcha ishlarida ham, jamiyatda ham, kichiklar, kattalarga, rastdagilar yuqoridagilarga bo'ysunishlari, hamda hurmat qilishlari kerak. Konfutsiynnig bosh maqsadi jamiyatning yuqori tabaqasi bilan quyi tabaqasi o'rtasida tinch, totuvlik yaratish, jamiyat taraqqiyotini yaxshilashga faravon hayot kechirishga qaratilgan. Konfutsiy har qanday urushlarga ham, podsholarinnig o'zaro ziddiyatlariga qarshi bo'lgan. Jamiyatniadolatli boshqarish uchun qilinadigan harakatlarning asosini faqat qonunlar emas, balki axloqiy normalar ham bo'lishini ta'kidlaydi. Insonlar o'rtasidagi barcha ijtimoiy munosabatlarnamanashu ahloqiy siyosiy-huquqiy normalar asosida (zo'rlik ishlatmay) rivojlanib borishi kerak.

Konfutsiyning diqqat markazida «muruvvatli zot» tushunchasi turadi. U asosan hukmron tabaqanining ideal vakili bo'lib, Konfutsiy ta'limoti yordamida o'zida jamiyat farovonligini ta'minlay oladigan va ma'naviy asoslarini ifodalay oladigan olijanob fazilatlarni shakllantirish lozim. Aniqroq qilib aytsak, bu zot oliy hukmdorga nisbatan chuqur ehtiromli, xalqqa esa muruvvatli bo'luvchi, butun kuch va qobiliyatini jamiyat oldidagi burchini oqlashga, milliy urf-odat va an'analarning to'la-to'kis bajarilishini ta'minlashga harakat etuvchi kishidir. Shuning uchun ham uning g'oyalari, rand-u nasihatlari Xitoyda shu kunga qadar qadar e'zozlanib va qadrlanib hurmat topib kelmoqda keladi.

## FALSAFA

Ustoz aytardi:— Qadimlarda kam so'ylashardi, o'z so'zlarining ortidan yetolmay qolishdan qo'rqiшhardi.Ustoz aytardi:— Ehtiyojkor odamlar kamdan-kam xato qiladilar. Ustoz aytardi:— Munosib xulqli kishi so'zlarni shoshilmasdan so'ylagani ma'qul va ishlarni jadal ado etmog'i afzal. Yan Yuan haqiqiy odamiylik nima, deb so'radi.— Odam o'zini tuta bilishi va adab taomillariga riosa etishi kerak, — deb javob berdi Ustoz, — mana shu chinakam odamiylik bo'ladi. Bir safar o'zingni tutishga o'rgansang va adabga riosa qilgan holda harakat qilsang, shunda butun Osmon seni odamiy ekan, deb ataydi. Odamiy bo'lish yoki bo'lmaslik faqat kishining o'zigagina bog'liq, — axir bu narsa boshqalarga bog'liq bo'lishi sira aqlga to'g'ri keladimi?

— Marhamat qilib aytинг-chi, bunga qanday erishsa boiadi? Ustoz aytdi:

— Adabga zid narsalarga qaramang. Adabga zid narsalarni eshitmang. Adabga xilof narsalarni garirmang. Adabga xilof narsalarni qilmang. Muallim aytdi:

— O'qish va doim barkamollikka intilish yaxshi emassi? Uzoqdan do'stlaring kelsa, quvonmaysanmi?

Muallim shunday dedi:

— Garga chechanlik va yoqimli chehra hamma vaqt ham insoniy fazilatni bildiravermaydi.

Muallim aytardi:

— Agar olijanob odamda qat'iyat yetishmasa, unda salobat ham bo'lmaydi, demak, u bilim olishga ishtiyoyqmand emas. Muhimi — halol va to'g'ri so'zli bo'l, maslakdosh bo'lmaganlar bilan do'stlashma va kamchiliklaringni tuzatishdan qo'rqlama. Muallim dedi:— Agar olijanob kishi ovqat rayti nafsi qondirishni o'ylamasa, uydaligida saranjom-sarishtalik haqida bosh qotirmasa, ish jarayonida abjis bo'lsa, o'ylab garirsa va yo'llini torib olganlar bilan yaqinlashib, o'zini o'nglab olsa, undaylar o'qishni yaxshi ko'rganlardan sanaladi. Muallim aytdi: — Odamlarning seni bilmaganligiga xafa bo'lma, balki o'zing odamlarni bilmaganliging uchun xafa bo'l. Konfutsiyning shogirdi Sziyu, "Farzand odobi nima?" deb so'radi. Muallim javob qildi:— Hozir farzand odobi, deganda faqat otonalarga mehr ko'rsatish, ularga qarash tushuniladi. Hayvonlar ham ravarish qilinadi-ku. Izzatikrom ko'rsatilmaydigan bo'lsa, bu ikkisida farq bo'lmaydi. Muallim aytdi: — Odamgarchilik bor joyda — hamma narsa go'zal. Qanday qilib aqli odam imkonni bo'la turib, bu joylarga tashrif buyurmasin? Muallim aytdi: — Odamgarchilikka intilish insonni barcha yomonliklardan qaytaradi. Muallim aytdi: — Har kim o'zining g'arazgo'yligi tufayli adashadi. Odamning xatosiga qarasang — uning odamgarchilik darajasini bilib olasan. Muallim aytdi: — Olijanob inson xayriyohlik ko'rsatishga intiladi, avom odam o'z yerini sog'inadi. Olijanob inson jazolanishni afzal ko'radi, avom odam rahm-shafqatga umid qiladi. Muallim aytdi: — O'z o'rningni tora olmasang, g'am yema. Kamol tormaganliging haqida qayg'urgin. Seni hech kim tanimasa, g'am yema, ammo mashhur bo'lish uchun doimo intil. Muallim aytdi: — Ota va onaning yoshini bilmaslik mumkin emas; bu o'g'il uchun ham quvonch, ham tashvish. Muallim aytdi: — Og'ir, bosiq odamning xatosi ham kam bo'ladi. Muallim aytdi: — Olijanob kishi sodda garirishga, mohirlik bilan ishlashga intiladi. Muallim aytdi:

— Yaxshi fazilat yolg'iz bo'lmaydi, albatta, uning qo'shnisi ham bo'ladi. Muallim aytdi: — Men hozircha mustahkam, bukilmas irodali odamlarni uchratmadim. Kimdir aytdi:—Shogirdingiz Shen Chen...Muallim e'tiroz bildirdi: — U shuncha ko'r narsani xohlaydiki, qanday qilib irodali bo'lsin! Jan Syu aytadi:— Sizning yo'llingiz menga yoqadi, lekin mening kuchim yetmaydiganga o'xshaydi. Muallim aytdi: — Kuchi yetmaganlar yarim yo'lda qolib ketadi. Sen bo'lsang, hali qadam tashlaganining ham yo'q.

Konfutsiyning qarashlari barcha insonlarning tabiiy ravishda bir-biriga tengligini, davlatning raydo bo'lishini hamda rivojlanishini, xalq hokimiyati bilan amalga oshishini himoya qiladi. U xudo g'oyasini umuman boshqacha yangicha namoyon qiladi. Osmonidan insonlar uchun faqat yaxshilik, e兹gulik yog'i lib turadi. Shuning uchun xudoga katta hurmat va ishonch bilan qarash deb takidlaydi. Konfutsiy jamiyatni boshqarishda xalq bilan birlashish kerakligini aytib o'tadi, zo'ravonlikdan xalq holi bo'lishi, zulm va qashshoqlikni ozod bo'lish kerakligini aytib o'tadi. Davlatning markazlashtirish va qonunchilikni rivojlantirish uchun qattiq qo'llikni aytib o'tadi. Xitoy hukumдорлари mamlakatni bir markazga bo'ysundirish uchun harakat qiladi, shunday qilganda ular xalq manfaati va kurashdan ajralib qolishga majbur bo'ldilar. "Konfutsiy fikricha davlatni boshqarishda xalkning talabi xisobga olinishi zarur. Jamiyatni rivojlanishi uchun rast tabaqadagilarni zum, ochlikdan ozod kilish zarur. «Kambagallik va yo'qsillikka asosiy sabab, bu davlat boshkaruvidagi rala-rartishliklar» deydi. Konfutsiy har qanday

urushlar, qo'rqitishlarni va armiyani qattiq tanqid qildi. Urushda hech bir tomon g'alaba qozonmagan. Jamiyatda odamlarni kam sonli bo'lib qishloqlarda yashashlari, mexnat qurollari va yozuvdan, zamonning yutuklaridan foydalanmaslik tarafdori bo'ladi." [1.26-b.] ."Konfutsiyning siyosiy-xuquqiy qarashlarga ko'ra rodsho o'z boshqaruv uslubini boshqalardan sir tutishi zarur bo'lgan. Qonunlarga bo'y sunish va unga amal qilish shart. Har bir davrga mos bo'lgan qonunlar yaratilishi kerak. Bu qonunlar keyinchalik muomaladan chiqishi mumkin." [1.33- b.] .

Konfutsiy ishlov beriladigan ekin maydonlari bilan aholi soni o'tasidagi eng maqbul nisbatni aniqlashga harakat qilib ko'rgan. Uning fikricha, bu nisbatning buzilishi quyidagi sabablarga olib kelishi mumkin bo'lgan:

- aholi soni kam bo'lsa, ekinzorlarga ishlov berish yomonlashadi va dehqonlar soliq to'lashdan bosh tortadi;

- aholi nihoyatda zikh bo'lsa, odamlarning qashshoqlashishi, bekorchilarning ko'rayishi sababli ijtimoiy muammolar kuchayadi. Bundan aholi soni davlat tomonidan tartibga solinishi kerakligi hamda odamlarni aholi zikh mintaqalardan aholi kam bo'lgan hududlarga ko'chirish masalasini hal qilish talab etilishi kabi xulosalar chiqarilgan.

"Konfutsiy shaxs ma'nnaviy xavfsizligini ta'minlash uchun jamiyatda adolatni qaror tortirish zarurligini uqdiradi. Ayni raytda shaxs ham jamiyat manfaatlariga mos ravishda faoliyat ko'rsatishi lozim." [9.120-b.] .

Konfutsiy fikricha, o'sha raytdagi barcha noxushliklar, zo'rovonliklar adolatsizliklar, ma'daniyatning cheklanganligi, insonlar o'tasidagi siyosiy-huquqiy notengliklarning bosh sababi haqiqatni qaror torilmaganidir. U hayotdagi, jamiyatdagi barcha adolatsizliklarni qoralar ekan, u butun e'tiborini o'zini o'zi yaratuvchi dao g'oyasiga qaratdi, dao g'oyasi adolatni taminlovchi asosiy vosita sifatida qaraydi. Konfutsiychilikdagi asosiy g'oya odamlarni tinch hotirjam yashashga qaratilganligidur. Boylik ham, mansab ham o'tkinchi, ulardan yiroq bo'lib yurish kerak degan g'oyalari asos qilib ilgari surilgan. Shuningdek, konfutsiylik ta'llimotiga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi o'z mavqeい orqali emas, uning odamiylik, adolatravarvarlik, haqiqatravarvarlik, samimiyat kabi yuksak fazilatlar vositasida yuksak darajaga erishishini ta'kidlaydi. Konfutsiy fikricha, «Inson xayoliga nima kelsa, shuni qilishga emas, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy tabaqadan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga majburdir. Inson har bir shaxs o'ziga belgilangan ijtimoiy mavqe darajasidan sidqidildan faoliyat yuritish, ya'ni ota o'z o'rnila, bola – farzand sifatida, hukmdor esa hukmdordek ish qilishi lozim».

Xalq ruhi, qalbi subyektiv voqelik hisoblansa-da, u birlashgan harakatlarida, madaniyati, tili, turmush tarzi va ijtimoiy-siyosiy xususiyatiga ega. Ba'zan kuzatiladiki, tashqaridan, xalq ruhiga, qalbiga mos kelmaydigan ijtimoiy-siyosiy institutlar, ayniqla qabul qilingan qonunlar yaxshi natija bermaydi, insonlar ularni qo'llab-quvvatlamaydi, o'zining befarqligi bilan ularga salbiy baho beradi. To'g'ri, ba'zi axloqiy normalarni kuch bilan, zo'r lab singdirish, shakllantirish mumkin, lekin ular ham xalqning tarixiy-madaniy paradigmaiga, axloqiy tasavvurlariga mos kelishi darkor. "O'z raytida Sharq mutafakkiri Konfutsiy, qabul qilinadigan qonunlar xalq qalbiga, an'analariga va axloqiy qarashlariga muvofiq kelishi lozim, aks holda kishilar ularga amal qilishdan qochadilar, degan edi." [10.63-68 b.] .

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o'rin olar ekan, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab yetishga harakat qilib, uni qayta va qayta yangidan kashf etganlar. Inson barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi.

Fikrlarning har xilligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan qidirishi mumkun. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biridir. Shu ma'noda mashhur qadimgi xitoy faylasufi "Konfutsiyning fikrlari diqqatga sazovor bo'lib, u shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring barkamollikning eng so'nggi darajasiga yetadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol toradi. Inson to'g'ri yo'lga kirsa va kamol torsa, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»." [11.139-b.] .

Insonni o'rganish, uning hatti – harakatlarini bir qolingga solish, yoki u haqda biron – bir nazariya yaratish, hatto bir me'yorda ushlab turish ham eng qiyin masalalardandir. Lekin, insonni

## FALSAFA

tinch, barqaror, saqlab turadigan, uni ezgulikka chorlaydigan mezonlari bu – uning qadriyatlaridir. Insoniyat o'zining o'zligini namoyon etishda, e'zozlashda, qolaversa barhayotligini saqlashda ham qadriyatlarga tayanadi. Shu tariqa inson cheksiz qadriyatlar ichida yashaydi. Kimdir tinchlik, halollik va boshqa mezonlarni qadriyat qilib olsa, kimdir mag'rurlik, zo'ravonlik va boshqa mezonlarni qadriyat qilib oladi. Ammo, insoniyat bugungi kunga kelib taraqqiyotning cho'qqisiga chiqish uchun bilim va vaqtini asosiy qadriyat qilib olib, o'zida ko'nikma sifatida shakllantirmoqda. Albatta, o'z umrining har bir daqiqasi mazmunini anglash vaqtini qadrlashga hamda dunyo, hayot va inson mohiyatini bilish esa bilimni qadrlashga yetaklaydi.

Moziya qaytadigan bo'lsak, elitaga ta'lif berishning yaxlit tizimi Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin. Bu tizim ikki yarim ming yil mobaynida Xitoy madaniyatiga belgilovchi ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ta'kidlash joizki, bu tizim faqatgina bilim olishga qaratilgan bo'lmay, avvalambor, ma'naviy-axloqiy takomillashuvni nazarda tutar edi. Konfutsiyning maqsadi ma'muriyatchilarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash emas, balki fazilatli kishilarni tarbiyalash bo'lgan. U ezgulikka intiladigan, bilimga tashna, mas'uliyatni his etadigan komil insonni tarbiyalash haqida orzu qilgan. Negaki, boshqaruvchi qatlam vakillari, uningcha, o'zining yuksak axloqiy sifatlari va bilimi tufayli elita tarkibiga kirgan.

Sharq mamlakatlari xalqlari tur mush tarzini o'ziga mos jihatlari, murakkabliklari haqida o'lmas obidalar yozib qoldirgan. Konfutsiy hayotni barqarorligi faqat moddiy boyliklarning teng bo'linishi emas, balki faolyat tomonidan o'tib e'zozlanib kelayotgan qadryatlar tizimiga bevosita shunga bog'liq ekanligini aytib o'tadi. Bugungi kunda g'arb olami uchun individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafqatsizlik, zo'rovonlik xususiyatlarining shaxs sifatlariga aylanib qolayotganligini jamiyat, hamda zomonamiz, uchun tahdid solayotganligi ommaviy axborot vositalari tomonidan bayon etib kelinmoqda.

Konfutsiy ilgari surgan g'oyalar hozirgacha Xitoy xalqi mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda. Konfutsiyni asosiy bosh g'oyasi xalqni shu qonun-qoidalarini hurmat qilish bilan hamda tarbiyalashdan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy qonuniyatiga taraqqiyotiga qarshi chiqmaslik, yaxshi yashash hamdaadolatsizlikni, zo'rovonlikni, nohaqlik yo'ldan bormaslik hamda tanlamasligi kerakligini namoyon qiladi. Konfutsiy odamlar haqida fikr bildirar ekan, insonlar, ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi tutgan o'rni orqali emas, balki insoniylik, adolatravarvarlik, haqgo'ylik, qalbi poklik, kabi ma'naviy, ahloqiy, fazilatlarga erishish tufayli barqaror, kamolatga yuksalishi mumkinligini takrollab o'tadi.

## XULOSA

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirish, nafaqat Sharq, balki butun dunyo uchun muhim ahamiyatga ega. Konfutsiychilikning axloqiy qadriyatlar, jamiyatni ma'naviy tanazzuldan qutqarish, yosh avlodni tarbiyalash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu tadqiqot, konfutsiychilikning rivojlanishi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini o'rganishga qiziqqan tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- История политических и правовых учений. Под.ред. В.С.
- Нерсесянца. НОРМА-ИНФРА.М. 1997.
- Конфуций. Книга изрепений (Лун Луй). –М.: "Радуга". 1998.
- Форобий А.Н. Фозил одамлар шахри. –т.: 1993. Город Мудрецов
- Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг. –Т.: "Фан". 1971.
- Куръони карим. "Моида" с., 54-оят. Т.: "Чўлпон". 1992.
- Абу Хамид аль-Газали. Наставления правителям. –М.: "Ансор". 2007.
- Амир Темур тузуклари. –Т.: 1996. –б. 25-26.
- Беседы и суждения Конфуция. – СПб.: Издательство «Кристалл», 1999.
- История Китайской философии. - М.: Прогресс, 1989.
- Будда. Конфуций. Жизнь и учение. – М., 1995.